Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological aspects of agro-tourism development in the Surkhandarya region. The scientific essence of agro-tourism, its role in sustainable rural development, and its impact on socio-economic processes are examined. Systematic, territorial, comparative, and statistical research methods were applied. The natural and agricultural potential of the region is substantiated as a key factor for agro-tourism development. The results of the study can be used to improve regional tourism policy.

Keywords: agro-tourism, rural tourism, regional development, sustainable tourism, Surkhandarya region.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методологические аспекты развития агротуризма в Сурхандарьинской области. Раскрывается научная сущность агротуризма, его роль в устойчивом развитии сельских территорий и социально-экономических процессах. Используются системный, территориальный и статистический методы исследования. Результаты работы имеют практическое значение для развития региональной туристической политики.

Ключевые слова: агротуризм, сельский туризм, региональное развитие, устойчивый туризм.

Asosiy matn. Agroturizm zamonaviy turizm industriasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq holda tashkil etiladigan turizm turi sifatida talqin qilinadi. Ushbu turizm shakli turistlarning fermer xo'jaliklari, bog'dorchilik, chorvachilik va an'anaviy dehqonchilik jarayonlarida bevosita ishtirok etishini nazarda tutadi.

Nazariy jihatdan agroturizm barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslanadi. Barqaror turizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va mahalliy aholining manfaatlarini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Agroturizm qishloq landshaftlarini saqlab qolish, milliy urf-odat va an’analarni asrash, ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega.

Surxondaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubida joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos tabiiy-geografik va iqlimiy sharoitlarga ega. Hududda subtropik iqlim hukmron bo‘lib, yil davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkoniyati mavjud. Bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va chorvachilik tarmoqlari viloyat iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlari hisoblanadi. Mazkur agroresurslar agroturizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Metodologik jihatdan agroturizmni tadqiq etishda tizimli va hududiy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Tizimli yondashuv agroturizmni yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib, uning tarkibiy elementlari – tabiiy resurslar, infratuzilma, mehnat resurslari va bozor munosabatlarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilishni taqozo etadi.

Hududiy yondashuv esa ma’lum bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Agroturizmni baholashda statistik tahlil, taqqoslama metodlar, iqtisodiy-geografik modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodlar orqali hududning agroturistik salohiyati, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari aniqlanadi. Surxondaryo viloyatida agroturizmni rivojlantirishda transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish, fermer xo‘jaliklarining turizm faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval-1

Surxondaryo viloyatida agroturizmni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar ulushi (%)

T/r	Omillar	Ulushi (% da)
1	Agroresurslar (bog‘dorchilik, chorvachilik)	30
2	Tabiiy-iqlim sharoiti	25
3	Infratuzilma (yo‘l, xizmatlar)	20
4	Ijtimoiy omillar (aholi bandligi, an’analar)	15
5	Institutsional omillar (davlat qo‘llovi)	10
6	Jami	100

Agroturizmni rejalashtirish jarayonida ekologik barqarorlik masalasi alohida e’tiborga olinishi lozim. Turistik faoliyat qishloq xo‘jaligi yerlariga va tabiiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Shu bois, ekologik monitoring, resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholining ishtirokini ta’minlash metodologik asos sifatida qaraladi.

Innovatsion yondashuvlar ham agroturizm rivojida muhim o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari, hududiy brendlarni shakllantirish va gastronomik agroturizmni rivojlantirish Surxondaryo viloyati uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi. Mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosida tashkil etilgan agroturistik marshrutlar hududning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatida agroturizmni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari yetarli darajada shakllangan bo‘lib, ularni amaliyotga joriy etish hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Agroturizm qishloq aholisining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, bandlikni oshirish va turizm sohasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lane B. Rural Tourism: An Overview. London: Routledge, 2019
2. Sharpley R. Tourism and Sustainable Development. Oxford: Elsevier, 2020.
3. Hall C.M., Page S.J. The Geography of Tourism and Recreation. London: Routledge, 2018.
4. UNWTO. Tourism and Rural Development. Madrid, 2022.
5. Qodirov A., Karimov B. Qishloq turizmi va uning iqtisodiy ahamiyati. Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi turizm va qishloq xo‘jaligi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

“Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish**Tolibov Yaxyojon G‘olib o‘g‘li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali “biznesni boshqarish va tabiiy fanlar” fakulteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari”
2 – bosqich talabasi

Xalimov Azizjon Normurod o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali “biznesni boshqarish va tabiiy fanlar” fakulteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari”
2 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda eski an‘anaviy metodlarning o‘rniga zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, elektron platformalarning ta‘lim jarayonida qo‘llanishi va uning foydasi haqida so‘z yuritilgan. Google classroomni foydaliligi, Coursera platformasining talabalarning darsdan tashqari vaqtini samarali o‘tkazishi haqida so‘z yuritilgan. Ushbu maqolada darsning metodlariga yangi va zamonaviy texnologiyalari integratsiya qilinishi va uning samaraliligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Google Classroom, Coursera, “Axborot texnologiyalari”, elektron platformalar, sun‘iy intellekt, gamifikatsiya, interaktiv texnologiyalar, Khan academy*

Abstract: This article discusses the use of modern methods and technologies in teaching the subject of "Information Technologies" instead of old traditional methods, the use of electronic platforms in the educational process and their benefits. The usefulness of Google Classroom, the Coursera platform for students to spend their extracurricular time effectively are discussed. This article discusses the integration of new and modern technologies into teaching methods and their effectiveness.

Keywords: *Google Classroom, Coursera, "Information Technologies", electronic platforms, artificial intelligence, gamification, interactive technologies, Khan academy.*

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных методов и технологий в преподавании предмета «Информационные технологии» вместо старых традиционных методов, применение электронных платформ в образовательном процессе и их преимущества. Обсуждается полезность платформы Google Classroom и Coursera для эффективного использования студентами внеучебного времени. В статье рассматривается интеграция новых и современных технологий в методы обучения и их эффективность.

Ключевые слова: *Google Classroom, Coursera, «Информационные технологии», электронные платформы, искусственный интеллект, геймификация, интерактивные технологии, Khan Academy.*

KIRISH. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borishi ta‘lim tizimi oldiga yangi talab

va vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni yetkazib berish emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni tahlil qilish va zamonaviy texnologiyalar yordamida samarali yechimlar topa oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, "Axborot texnologiyalari" fanini o‘qitishda talabalarni faol o‘quv jarayoniga jalb etish, ularning amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

An‘anaviy o‘qitish usullarida bilim asosan o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilib, talabalar esa ko‘proq tinglovchi rolida ishtirok etadi. Dars jarayonlari an‘anaviy tarzda ya‘ni ma‘ruza va smenar shaklida o‘tmoqda. Bunday yondashuv axborot texnologiyalari kabi tez o‘zgaruvchan va amaliy yo‘naltirilgan fanlar uchun yetarli samaradorlikni ta‘minlay olmaydi. Shu sababli ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Interaktiv metodlar o‘quv jarayonining subyektlari o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslanib, talabalarning mustaqil izlanish olib borishiga, muloqot qilishiga va bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida egallashiga imkon yaratadi.

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda interaktiv metodlarning qo‘llanilishi talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish hamda ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bunda muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, guruhli ishlash, loyiha faoliyati va raqamli ta‘lim platformalaridan foydalanish kabi metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash va texnologik muammolarni hal etish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘sirini asoslash hamda o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta‘lim amaliyotida qo‘llanilayotgan interaktiv metodlar va ularning natijalari tahlil qilinib, mazkur fan doirasida interaktiv o‘qitishning ahamiyati ilmiy asosda yoritib beriladi.

Asosiy qism. Bizni o‘rab turgan borliq haqidagi bilimlar yoki har qanday ma‘lumotlar axborot deb ataladi.

Axborot texnologiyasi – bu bir zanjirga birlashgan, axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va aks etish, shu bilan birga axborotning ishonchliligi va tezkorligini oshirish jarayonlari, mehnat unumdorligini orttirish maqsadida informatsion resursdan foydalanishni ta‘minlovchi uslublarni ishlab chiqish jarayonlari va dasturni texnik vositalarining yig‘indisidir.

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika, didaktika hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Ushbu fan ta‘lim jarayonida nafaqat texnik bilimlarni berishga, balki talabalarda algoritmik tafakkur, mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini

shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda bilim mazmunini tanlash, uni tizimlashtirish va o‘zlashtirish jarayonini tashkil etishda ilmiylik, izchillik, uzviylik va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillariga qat’iy amal qilinishi zarur.

Mazkur fan o‘qitishning nazariy asoslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuvda talaba o‘quv jarayonining markaziy subyekti sifatida qaralib, uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi. Axborot texnologiyalari fanining mazmuni murakkab va tez yangilanib boruvchi bilimlardan iborat bo‘lganligi sababli, o‘qitish jarayonida konstruktivizm nazariyasiga asoslangan metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki talabalar tomonidan mustaqil izlanish, tajriba va muloqot jarayonida shakllantiriladi.

Axborot texnologiyalari fanining o‘qitish jarayonida didaktik tamoyillar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalar nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonini loyihalash, rejalashtirish va boshqarishda ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarining o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Bu esa fan bo‘yicha bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, nazariy tushunchalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Natijada axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayoni ilmiy asoslangan, samarali va zamonaviy ta’lim talabalariga mos holda amalga oshiriladi.

Biz fanning asosiy mazmuni haqida gapiradigan bo‘lsak, u quyidagilardan iborat;

- axborotlarni to‘plash, uzatish va qayta ishlash
- zamonaviy axborot texnologiyalari
- zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘llash va uning ahamiyati
- o‘quv va nazorat qiluvchi dasturlar va ular bilan ishlash
- matnli va grafikli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari
- multimediali texnologiyalar bilan ishlash
- masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

Biz fanning asosiy mazmunlarini yozdik, ammo asosiy vazifalari ko‘p.

Interaktiv metodlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi faol muloqot, hamkorlik va birgalikdagi intellektual faoliyatga asoslangan o‘qitish usullari majmuini anglatadi. Ushbu metodlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga erishishdan iborat. An’anaviy ta’limda bilimlar asosan bir yo‘nalishda uzatilgan bo‘lsa, interaktiv metodlar ta’lim jarayonini ikki tomonlama va ko‘p tomonlama muloqot asosida tashkil etishni

taqozo etadi, bu esa bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy ta'lim muhitida interaktiv metodlarning ahamiyati raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda yanada ortib bormoqda. Xususan, Google Classroom platformasi ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etib, o'qituvchi va talabalar o'rtasida doimiy aloqani ta'minlaydi. Ushbu platforma orqali topshiriqlarni berish va qabul qilish, baholash, fikr almashish hamda o'quv materiallarini tizimli joylashtirish mumkin bo'lib, bu jarayon talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qulay tomoni ham shundagi talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini qabul qilishda Google Classroom orqali qabul qilish juda ham qulay, inson omilini kamaytiradi va vaqt tejamkorligiga olib keladi, Coursera kabi ochiq onlayn ta'lim platformalari esa interaktiv videodarslar, testlar, loyihaviy topshiriqlar va muhokama forumlari orqali ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi hamda global miqyosda bilim almashish imkonini yaratadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi interaktiv metodlarning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim tizimlari talabalarning bilim darajasini tahlil qilish, individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish va moslashtirilgan o'quv materiallarini taklif etish imkonini beradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga xizmat qilib, har bir talabani o'z imkoniyatlariga mos tarzda bilim olishini ta'minlaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi avtomatik baholash tizimari va virtual yordamchilar o'qituvchining yuklamasini kamaytirib, ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bu ta'limga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida xalqaro ta'lim standartlari ham rivojlanib bormoqda. Xalqaro ta'lim standartlari rivojlanib borayotgan bir paytda bizda ham ta'lim berish metodikasini rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. An'anaviy metod talabalarni darsga e'tiborini jalb qila olmayabdi, shu sababli dars jarayonlarida zamonaviy va interaktiv metodlardan foydalanish lozimdir. Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish tajribasi so'nggi yillarda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham keng tatbiq etilmoqda. Amaliyot ko'rsatadiki, interaktiv metodlarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar faolligini rag'batlantirish va nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Dars jarayonlarini elektron platformalarda tatbiq etish talabalarni mavzuni sifatli o'rganishiga yordam beradi. Elektron ta'lim platformalarni turlari ko'p bo'lib ularga quyidagi asosiy turlarini misol qilishimiz mumkin:

1. Coursera;
2. Khan Academy;
3. Codecademy;
4. Google classroom;
5. LinkEdIn Learning.

Bular asosiylari bo'lib, elektron ta'lim platformalarining turlari ko'p.

Google Classroom – o'qituvchi yoki talabalar o'quv jarayonida yoki undan tashqarida bo'lganlarida foydali vosita bo'lib ular dars berishda davom etishlari va o'tkazib yuborilgan darslarni o'zlashtirishlari mumkin. Google Classroom murakkab bo'lmagan platforma bo'lib, ishlash oson va dizayni qulay. Yuklangan topshiriqlar va barcha materiallar avtomatik ravishda Google Drivedagi papkalarga joylashtiriladi va kurslarning o'chib ketmasligiga va doimiy saqlanishiga olib keladi.

Google Classroomning eng asosiy samaradorligi shundaki, qulay va samarali aloqani tashkil etadi va vaqt samaradorligiga olib keladi. Ya'ni o'qituvchi tashkil etgan kursdagi vazifalarni bajaradi va unga qaytadan joylaydi. Classroomning yana bir qulayligi shundaki u ochiq, xavfsiz va bepuldir. Unda reklamar mavjud emas va talabalar uchun materiallar va ma'lumotlar marketing maqsadlarida ishlatilmaydi.

Coursera – bu universitet darajasidagi va sertifikatlashtirish dasturlari bo'yicha onlayn ta'lim uchun platforma. Unda 300 dan ortiq sun'iy intellekt va kompyuter bilimlariga oid kurslar mavjud bo'lib, talabalar darsdan tashqari muhitda platformadagi kurslarni o'rganishi va kurs yakunida berilgan testlarni bajarish natijasida kursni puxta o'rganadi, natijada talabaga sertifikat beriladi.

Dars jarayonlarni boyitish uchun sun'iy intellekt bilan zamonaviy tarzda o'tkazish talabalarning darsga e'tiborini jalb etadi. Elektron darsliklar va interaktiv dasturlar ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat ma'lumotni o'qitish, balki talabailarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, dasturlash tillari bo'yicha interaktiv darsliklar talabailarga real vaqtda kod yozish, xatoliklarni aniqlash va to'g'rilashim koniyatini yaratadi. Bunday resurslar orqal talabailar o'zlarining o'rganish uslubiga mosravishda ta'lim oladilar. Boshqa bir misol sifatida, virtual laboratoriyalarni keltirish mumkin. Ular orqali talabailar dasturlash, ma'lumotlar bazasini yaratish, tarmoq texnologiyalari va boshqa sohalarida amaliy mashqlarni bajarishlari mumkin.

Gamifikatsiya – bu ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish usulidir. Bu usul yordamida talabailar darslarga yanada qiziqish bilan yondashadilar. O'yinlar va interaktiv ta'lim vositalari yordamida talabailar nafaqat bilim olishadi, balki o'z ko'nikmalarini va kreativ fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Masalan, algoritmlar yaratish yoki kod yozish o'yinlari orqali talabailar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki amaliy tajriba ham orttiradilar. O'yinlar va simulyatsiyalar orqali talabailar murakkab mavzularni osonroq tushunadilar va ularni real hayotda qanday qo'llashni o'rganadilar.

XULOSA. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida interaktiv metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning talabalarning faolligi va bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ta'siri o'rganildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, Google Classroom, Coursera kabi raqamli ta'lim platformalari hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali, tizimli va qulay tashkil etishga imkon beradi. Bunday

yondashuvlar orqali talabalarning mustaqil ishlash, axborotni tahlil qilish va amaliy vazifalarni bajarish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Maqola natijalari asosida aytish mumkinki, interaktiv texnologiyalar axborot texnologiyalari fanining mazmuniga mos bo'lib, ularni qo'llash talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlarni samarali qo'llash o'qituvchidan zamonaviy pedagogik va raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishni, ta'lim oluvchilardan esa faol ishtirok va mas'uliyatni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildirish mumkin: axborot texnologiyalari fanini o'qitishda interaktiv metodlardan muntazam va tizimli foydalanish lozim; dars jarayonida Google Classroom va boshqa onlayn platformalar imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq; sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Ushbu takliflar amaliyotga tatbiq etilgan taqdirda, axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligi yanada oshadi va zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'limda Axborot texnologiyalari. H.F.Xursandov. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2024. – 160 bet.
2. Axborot tizimlari. R.X.Alimov, O'.T.Xayitov, A.F.Xakimov, G.T.Yulchieva, O.X.Azamatov, U.A.Otajonov. O'quv qo'llanma – T.: TDIU. 2013
3. S.S. Gulomov, R.X. Alimov, X.S. Lutfullaev va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy oquv yurtlari talabalari uchun darslik //Mualliflar jamoasi: - Toshkent.: «Sharq». 2000 yil.
4. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA "AXBOROT TIZIMLARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Xalimov Azizjon Normurod o'g'li. YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 134-138 betlar.
5. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI. Temirov Shahrizod Uchqunjonovich. International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 20 ISSN 2181-1784, SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. 326-333
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_tehnologiyalari

O'quvchilarda ijodiy salohiyatni shakllantirishda qo'llaniladigan musiqiy interfaol usullar

Zokirova Sevara

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirishda qo'llaniladigan interfaol musiqiy usullar tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqiy faoliyatning psixologik-pedagogik imkoniyatlari, o'yin texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar, improvizatsiya va jamoaviy musiqiy faoliyatning o'quvchilar kreativ tafakkuriga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, estetik didi va ijodiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqola musiqa ta'limi samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, ijodiy salohiyat, interfaol usullar, kreativ tafakkur, musiqiy ta'lim, improvizatsiya, o'yin texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье анализируются интерактивные музыкальные методы, применяемые в процессе формирования творческого потенциала учащихся на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Рассматриваются психолого-педагогические возможности музыкальной деятельности, роль игровых технологий, импровизации, коллективного музицирования и творческих заданий в развитии креативного мышления обучающихся. Обосновывается эффективность интерактивного подхода в повышении учебной активности, самостоятельности и эстетического восприятия учащихся. Статья направлена на повышение результативности музыкального образования и содержит практические педагогические выводы.

Ключевые слова: музыкальная культура, творческий потенциал, интерактивные методы, креативное мышление, музыкальное образование, импровизация, игровые технологии.

Abstract: This article examines interactive musical methods used to develop students' creative potential in music education classes at general secondary schools. The study highlights the psychological and pedagogical possibilities of musical activities, focusing on the role of game-based learning, improvisation, collaborative music-making, and creative tasks in fostering students' creative thinking. The effectiveness of interactive approaches in enhancing learners' engagement, independence, and aesthetic perception is substantiated. The article aims to improve the quality of music education and provides practical pedagogical insights.

Keywords: music education, creative potential, interactive methods, creative thinking, musical culture, improvisation, game-based learning.

Kirish: Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki ularning ijodiy fikrlashini, tashabbuskorligini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

musiqa madaniyati fani o'quvchilarning ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning his-tuyg'ulari, tasavvuri va ijodiy tafakkurini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan qaraganda, musiqa darslarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy interfaol usullarni darslarda qo'llashning mazmuni va ahamiyati juda katta. Interfaol usullar – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan, o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadigan metodlar majmuidir. Musiqa darslarida bunday usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni musiqiy jarayonga bevosita jalb etadi hamda ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi.

Musiqiy interfaol usullar orqali o'quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiradilar, balki musiqiy obrazlar yaratish, kuy va ritmlarni his qilish, o'z fikr va his-tuyg'ularini musiqiy vositalar orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi asosiy interfaol usullarga quyidagi usullarni kirita olamiz:

1. Musiqiy improvizatsiya, bunda improvizatsiya o'quvchilarning erkin ijod qilishiga imkon beradigan eng samarali usullardan biridir. Oddiy ritmik urishlar, ovoz bilan tajriba qilish yoki tanish kuyga yangi ohang qo'shish orqali bolalar o'z ichki dunyosini erkin namoyon etadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda o'ziga ishonch va ijodiy jasorat shakllanadi.

2. Musiqiy o'yinlar. O'yin faoliyati ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim hisoblanadi. Musiqiy rolli o'yinlar, ritmik harakatlar va musiqaga mos sahnalashtirishlar orqali o'quvchilar musiqani chuqurroq his etadilar. Shu bilan birga, ularning tasavvuri, diqqat-e'tibori va ijodiy faolligi rivojlanadi.

3. Jamoaviy musiqiy faoliyat Ansamblda kuylash, guruh bo'lib qo'shiq ijro etish yoki musiqiy kompozitsiya yaratish o'quvchilarda hamkorlik, muloqot va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantiradi. Bunday faoliyat jarayonida o'quvchilar o'z g'oyalarini erkin bildiradilar va umumiy ijodiy natijaga hissa qo'shadilar.

4. Muammoli va ijodiy topshiriqlar Musiqa darslarida beriladigan ochiq savollar, masalan, "Bu kuy sizda qanday tasavvur uyg'otadi?" yoki "Agar bu musiqa rang bo'lsa, qaysi rang bo'lardi?" kabi topshiriqlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini faollashtiradi. Ular musiqani shaxsiy tajribasi va hissiyotlari asosida talqin qilishni o'rganadilar.


Musiqiy interfaol usullarning tarbiyaviy ahamiyati ham ta'kidlab o'tishga molik ahamiyat hisoblanib, interfaol musiqiy usullar nafaqat ijodiy salohiyatni, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Musiqa orqali bolalarda estetik did, milliy qadriyatlarga hurmat va san'atga mehr shakllanadi. Shu sababli, musiqa madaniyati darslarida interfaol yondashuvlardan foydalanish ta'limning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ijodiy salohiyatni shakllantirishda musiqiy interfaol usullar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu usullar

o‘quvchilarning erkin fikrlashi, ijodiy tashabbuskorligi va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilar nafaqat musiqiy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki hayotning turli jabhalarida kreativ yondasha oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Moskva: Pedagogika, 1989.
2. Levitov N.D. Psixologiya tvorchestva. – Moskva: Prosveshcheniye, 1983.
3. Abdullayev R. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Nazarov M. Pedagogik texnologiyalar va ijodiy ta’lim. – Toshkent, 2020.
5. Exploring the Link: Music Education and its Influence on Students’ Creativity Development. – International Journal of Music Education, 2021.



Realism and its primary characteristics in english literature**Fazliddinova Durдона Husniddin qizi,**

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi,

guli1994mansurjonova@mail.ru

Abstract: The following article informs about the period of realism in English literature and its primary features. The data is supported with the literary works of prominent English realist authors.

Keywords: English literature, realism, literary movement, nineteenth-century literature, social realism, critical realism, depiction of real life, social issues, character psychology, artistic detail, objectivity, relationship between society and the individual.

Аннотация: Следующая статья информирует о периоде реализма в английской литературе и его основных особенностях. Приведённые сведения подтверждаются литературными произведениями известных английских писателей реалистов.

Ключевые слова: Английская литература, реализм, литературное направление, литература XIX века, социальный реализм, критический реализм, изображение реальной жизни, социальные проблемы, психология персонажа, художественная деталь, объективность, взаимоотношения общества и личности.

Annotatsiya: Quyidagi maqola ingliz adabiyotida realizm davri va uning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Keltirilgan ma'lumotlar mashhur ingliz realist yozuvchilarining adabiy asarlari bilan tasdiqlanadi.

Kalit so'zlar: Ingliz adabiyoti, realizm, adabiy oqim, XIX asr adabiyoti, ijtimoiy realizm, tanqidiy realizm, real hayot tasviri, ijtimoiy muammolar, qahramon psixologiyasi, badiiy tafsilot, obyektivlik, jamiyat va shaxs munosabati.

Introduction. Realism is a literary movement that shows life as it really is. In literature and art realism focuses on ordinary people, everyday events and real social conditions. It developed strongly in the 19th century as a reaction against romanticism, which emphasized emotion and imagination. Realist writers and artists show both positive and negative aspects of life, including struggles, work and social issues. The goal of realism is to create an honest, believable picture of the world so audiences can better understand real human experiences.

Realism in English literature has its own distinct features, such as the usage of simple and straightforward language, description of ordinary people and others.

Ordinary characters: Realist writers focus on common people such as shopkeepers, farmers, workers, students and middle-class families instead of kings, heroes or mythical figures. These characters live normal lives and face realistic problems like poverty, family conflicts, work pressure and social inequality. By using ordinary characters realism shows true human behavior and real emotions. The characters are not perfect they have strengths, weaknesses and flaws. This

helps readers relate to them easily and understand real society and everyday life more clearly. Examples of realistic novels include *Pride and Prejudice* by Jane Austen, *Oliver Twist* by Charles Dickens, *Madame Bovary* by Gustave Flaubert, *The Old Man and the Sea* by Ernest Hemingway.

Main part. Real life situation: Realist writers present events that can actually happen in everyday life, avoiding fantasy, magic or supernatural elements. The stories often include common experiences such as family relationship, work life, social conflicts and moral struggles. These situations are shown in a natural and believable way, just as they occur in society. By using real-life situations, realism helps readers understand true human behavior and social conditions. This feature makes realist works relatable, meaningful and reflective of real society and human experiences.

Example: George Eliot "Silas Marner" (He lived alone and his life, deprived of human affection, gradually narrowed until it became centered on one thing-his gold).

Simple and clear language: Realist writers avoid overly poetic or exaggerated expressions. Instead, they write in a way that is easy to understand, reflecting how ordinary people speak and think. This helps readers relate to the story and the characters. The focus is on clarity and precision so events and emotions are presented truthfully. Simple language also allows the social and moral messages of the story to come through naturally. Examples of this can be seen in novels like "Oliver Twist" by Charles Dickens.

Focus on social problems and challenges: Realist writers often depict issues such as poverty, child labor, corruption and the struggles of ordinary people. By showing these problems honestly, writers encourage readers to understand and reflect on the social environment around them. Example can be "Oliver Twist" by Charles Dickens. It explores poverty and child labor, while "Germinal" by Emile Zola focuses on the harsh conditions of miners.

Charles Dickens was a famous English novelist, widely recognized as a realist writer. He focused on portraying everyday life and social issues in 19th century England. Charles Dickens wrote about ordinary people, including children and the poor, showing their struggles and moral challenges. Charles Dickens uses simple, clear language and realistic characters to depict life truthfully, which are key features of realism in literature. The novel "Oliver Twist" depicts the harsh life of poor children in 19th – century England and highlights the social problems of that time, such as poverty, crime and injustice. The main character Oliver Twist despite all hardships, remains kind, honest and steadfast. Through Oliver's story, Dickens emphasizes the importance of compassion, justice and helping the vulnerable. The work teaches that a person, even in difficult circumstances can maintain moral values and that society must fight poverty and injustice. Overall, the novel serves as a social and moral lesson, showing the need for humanity and support for the poor.

George Eliot was a prominent English novelist and one of the leading realist writers of the 19th century. She focused on portraying everyday life and human nature with honesty and psychological depth. The main character in "Silas Marner" highlights the struggles, virtues and flaws of common people, showing how personal choices interact with social conditions, which is a key feature of realism. The novel "Silas Marner" tells the story of a man who, due to betrayal and loneliness, withdraws into himself and devotes his life entirely to accumulating wealth. Having lost his sense of purpose, he becomes cut off from society. Everything changes when a little girl Eppie enters his life and he raises her as his own daughter. Through this story, George Eliot shows that true happiness and the meaning of life are found in love, family and human relationships, not in material wealth. The novel emphasizes the value of humanity, caring for others and spiritual richness over material possessions.


Elizabeth Gaskell was an England novelist of the Victorian age and a well-known realism writer. Wrote about real social conditions of 19th century England. Elizabeth Gaskell showed problems such as, poverty, industrialization, class conflict and injustice in a realistic way. The main character in "North and South" the work depicts the clash of two worlds the calm, traditional South of England and the industrial, rapidly developing North. The main heroine, Margaret Hale faces problems of social injustice, the harsh conditions of workers and tense relations between laborers and factory owners. Through her experiences, the author shows that understanding, tolerance and human compassion can overcome conflicts and prejudices. An important theme of the novel is not only social inequality but also the personal growth of the characters and the ability to see people as they truly are, without bias. Elizabeth Gaskell realistically portrays life in an industrial city, showing both the difficulties and hopes of people from different social classes. "North and South" teaches compassion, responsibility and respect for labor, making it relevant even today.

Realism in English literature emerged in the 19th century as a response to the idealized and emotional focus of Realism. Its main goal was to depict the truthfully and accurately, showing ordinary people and everyday situations rather than heroes, royalty or fantastical events. Realist writers emphasized plausible plots, believable characters and social environments, presenting both the positive and negative aspects of life. They often highlighted social issues such as poverty, inequality, crime and moral dilemmas, encouraging readers to reflect on society.

The language used in realist works is typically simple and clear, making the stories relatable and accessible. Authors like Charles Dickens and George Eliot created characters whose struggles, choices and emotions mirrored real human experiences, allowing readers to empathize and understand social realities. Overall, realism made literature socially relevant, morally instructive and psychologically insightful, shaping English literature into a medium for both reflection and social critique.

References:

1. Abrams, M.H. (1999). A glossary of literary terms (7th ed.). Boston: Heinle & Heinle.
2. Very important for defining realism and placing it among literary movements.
3. Eagleton, T. (2002). The English novel: an introduction. Oxford: Blackwell Publishing.
4. Strong theoretical discussion of realism in the English novel.
5. Watt, I, (1957). The rise of the novel: Studies in Defoe, Richardson and Fielding. London: Chatto & Windus.
6. Classic source on realism and the development of the English novel.
7. Williams, R. (1977). Marxism and literature. Oxford: Oxford University Press.
8. Useful for social realism and class representation.
9. Lodge, D. (1977). The modes of modern writing: Metaphor, metonymy, and the typology of modern literature. London: Edward Arnold.
10. Helpful for contrasting realism with modernism.
11. Childs, P., & Fowler, R. (2006). The Routledge dictionary of literary terms. London: Routledge.
12. Concise, authoritative explanations of realism and related concepts.



MUNDARIJA TABLE OF CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ		
1.	Protruziya: Etiologiyasi, Klinik Belgilar Va Statistik Tahlillar Ergashev Bekzod	3
2.	Dental fluorosis and fluoride: etiology, clinical pathogenesis, diagnosis and contemporary management Ergashev Bekzod, Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna	7
3.	Muzrabot tumanida issiqxona xo‘jaligining samarali jihatlari Boltayeva Dildora Abdumalikovna	17
4.	Surxondaryo viloyatida agroturizmning nazariy va metodologik jihatlari Nurmamatov Xidir Jumanazar o‘g‘li	20
5.	“Axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish Tolibov Yaxyojon G‘olib o‘g‘li Xalimov Azizjon Normurod o‘g‘li	23
6.	O‘quvchilarda ijodiy salohiyatni shakllantirishda qo‘llaniladigan musiqiy interfaol usullar Zokirova Sevara	29
7.	Realism and its primary characteristics in english literature Fazliddinova Durдона Husniddin qizi	32